

DIGITAL BUSINESS MANAGEMENT_WEEK_3. THE ROLE AND IMPORTANCE OF DIGITAL PLATFORMS IN DIGITAL BUSINESS MANAGEMENT**RAQAMLI BIZNES BOSHQARUVI_3_HAFTA. RAQAMLI BIZNESNI BOSHQARISHDA RAQAMLI PLATFORMALARNING ROLI VA AHAMIYATI**

Barqaror iqtisodiy rivojlanishga intilgan aksariyat davlatlar, jumladan, O‘zbekiston hamjihatlik, erkinlik, shaffoflik, ochiqlik tamoyillariga asoslangan ijtimoiy munosabatlar tizimini shakllantirishga intilmoqda. Bu borada ichki va tashqi omillarning doimiy ta’sirini baholab borish negizida milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish va tahlil qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash orqali eksport salohiyatini oshirish, milliy iqtisodiyotni yuqori sur’atda o‘shirishni ta’minlovchi va globallashtirish jarayonlariga raqobatbardoshligini ta’minlash, savdo hajmini oshirish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash maqsadida raqamli iqtisodiyotning rolini oshirishga qaratilgan muhim strategik maqsadlarni oldiga qo‘yib harakatlanmog‘i lozim. Xususan, eksport hajmini oshirishda sarmoyaviy-innovatsion hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bunda makro (davlat) va mikro darajadagi (korxonalar) va jamoatchilik bilan aloqalarni raqamlashtirish orqali erishish mumkin.

Globallashuv jarayonlari, raqamlashtirish, xalqaro raqobatning kuchayishi va sohalar integratsiyalashuvi jahon mamlakatlari oldiga eng qisqa vaqt ichida samarali hal etilishi zarur bo‘lgan yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Global va milliy kapital bozorlarida raqamli texnologiyalar, jumladan, dasturiy ta’minot, internet o‘yinlari, elektron tijorat, katta hajmdagi ma’lumotlar bazasini saqlash texnologiyasi hamda boshqalarga sarmoyalarning ortishi hisobiga tarkibiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Raqamli bozorlarning rivojlanishi aholining ta’lim darajasi yuqori bo‘lgan mamlakatlarda oson kechayotganiga guvoh bo‘lyapmiz. Yangi ehtiyojlar, axborot tezligi va hajmi kundan kunga ortib borishi natijasida raqamli iqtisodiyotda yangi mahsulotlar yaratish orqali ehtiyojlarni arzon, tez, samarali qondirishga erishiladi. Shu sababli, har bir mamlakat global bozorlarga chiqish uchun raqamlashtirish imkoniyatlaridan unumli foydalanadi.

Birinchidan, eksport salohiyatini oshirishning shartlaridan biri bu iqtisodiyotni raqamlashtirish hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyotga tez sur’atlar bilan integratsiya qilish nafaqat milliy iqtisodiyotda ishlab chiqilayotgan mahsulot, ish va xizmatlar tannarxini minimallashtirishga, ijtimoiy, iqtisodiy, budjet samaradorlikni oshirishga balki aynan davlatning eksport salohiyatini oshirishsh garovi hisoblanadi.

Ikkinchidan, Sanoat 4.0 texnologiyalaridan foydalangan holda qayta sanoatlashtirish samaradorligini baholash, monitoring, tahlil qilib borish, infratuzilmani rivojlantirish, ishlab chiqarish sanoatida bandlikni oshirish va yalpi

ichki mahsulotdagi sanoat ishlab chiqarish ulushini oshirish, ekologik toza texnologiyalarni keng qo'llash, ilmiy tadqiqotlarni faollashtirish va texnologik imkoniyatlarni yaratishdan iborat.

Uchinchidan, korporativ moliyaviy boshqaruv jarayonida Sanoat 4.0 texnologisi tarkibiy qismi bo'lgan blokcheyn, DLT texnologiyasining ishlash tamoyillarining afzallik tomonlaridan biri shundaki: tizimga joylangan har qanday ma'lumot bir zumda tizimga ulangan har bir foydalanuvchi uchun bir vaqtda ko'rish imkoniyatini berish bilan bir qatorda, mazkur yuklatilgan ma'lumotni saqlanishini ta'minlash yoki uni o'chirilib ketishini oldini olishga; ma'lumotlar bazasini taqsimlanish jarayonida yuqori darajadagi shaffoflikni ta'minlash imkoniyatining mavjudligi; ma'lumotlar va axborotlar almashinuvida aniq maqsadli kuzatuvni yo'lga qo'yish imkoniyatining mavjudligi; ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash jarayonining kam xarajat talab etishi; axborotlarni saqlash muddatining davomiyligi; ma'lumotlarni qayta ishlash, maqsadli tavsiflash va turkumlash imkoniyatlarining mavjudligidadir.

To'rtinchidan, raqamli iqtisodiyotga o'tishning asosiy sharti bu jamiyat hayotining barcha jabhalariga Sanoat 4.0 texnologiyasini jadal sur'atlar bilan tadbiq etish, mazkur jarayonda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni aniqlash va ularni o'z vaqtida bartaraf etilishini ta'minlash hisoblanadi. Ushbu jarayonda sanoat tarmoqlarining samaradorlik ko'rsatkichlarini taqqoslash nuqtai nazaridan raqamli texnologiyalarni rivojlantirish maqsadlari bilan bog'liqlik asosida KPIning hisoblash va muntazam baholab borish uchun taklif qilingan metodologiyadan foydalangan holda baholash mumkin. Beshinchidan, yagona elektron savdo "raqamli eksport" platformasi texnologiyasidan foydalanishning kuchli jihati qo'yidagilardan iborat: moliyaviy ma'lumotlar bazasining maxfiy himoyalanganlik darajasining yuqoriligi; eksport operatsiyalarini amalga oshirilgan moliyaviy operatsiyalarga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar bazasining xavfsizlik darajasining ta'minlanganligi; katta hajmda yig'ilgan ma'lumotlar bazasiga ruxsatsiz kirish imkoniyatlarining cheklanganligi; katta hajmdagi eksport hisobot ma'lumotlarini jamlash, ularni qayta ishlash, samarali uzluksiz nazoratini ta'minlash, ularni monitoringini amalga oshirish imkoniyatining mavjudligi; ma'lumotlar bazasi yaxlitligi va himoyalanganlik darajasining mavjudligi mazkur ma'lumotlarni yuqori aniqlikda prognoz qilish imkonini berishi; aqlli smart shartnomalarni imzolash, ularni onlayn nazoratini amalga oshirish mumkinligidir.

Bundan tashqari, 24/7/365 kun davomida tashqi savdo ishtirokchilari uchun bir nuqtadan yordam olishning samarali vositasini yaratilganligi; hujjatlarni bir martalik taqdim etish va ulardan ko'p foydalanishni ta'minlash hamda elektron o'zaro aloqa o'rnatish bilan qog'oz hujjatlar sonini kamaytirilganligi; eksportni

rag'batlantirishning yagona tizimi joriy qilinganligi; elektron shaklda litsenziya olish, bojxona, soliq, sug'urta, bank, logistika xizmatlari va boshqa bir qator xizmatlar ko'rsatish orqali eksport qiluvchilarning xarajatlarini kamaytirishga erishish mumkinligidir.

Oltinchidan, eksport jarayonida "raqamli eksport" platformasidan foydalanishning kuchsiz jihati qo'yidagilardan iborat: texnologiyani uzluksiz ishlash davomiyligi elektr energetika tarmog'iga o'ta darajada uzviy bog'liqligi; internet tarmog'ining ta'siri mavjudligi; har bir korporativ moliyaviy boshqaruv tuzilmasining o'ziga xosligini inobatga olinish zaruriyati; kadrlar salohiyatini doimiy ravishda oshirib borish zaruriyati; yuqori tezlikdagi internetga talabning yuqoriligi, dastur kodidagi xatoliklar bo'lishi riskining mavjudligidir. Yettinchidan, raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonini tezlashtirish orqali quyidagi muammoli vaziyatlarga barham berishga erishish mumkin: bankdan tashqari bo'lgan naqd pul aylanmasi darajasini maksimal kamaytirishga erishish; yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi ulushini kamaytirish; davlat boshqaruvi tizimini soddalashtirish, bunda inson faktori ishtirokini minimallashtirish hamda korrupsion tizimga barham berish; soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish jarayonini takomillashtirish hamda ularning doimiy tushumini o'z vaqtida ta'minlanishiga erishish; yagona elektron raqamli platformalardan jahon bozoriga tez, oson va arzon mahsulot eksport qilishni rivojlantirish orqali eksport korxonalarini jalb qilishga erishish mumkin. Dasturlarga aloqador yondosh hujjatlar ba'zan pala-partish tuziladi. Natijada mahsulot bilan ishlash jarayonida buyurtmachi o'zi buyurtma bergan va yaratilishi uchun pul to'lagan ishlanma ustidan nazoratni qo'ldan chiqaradi. Bunda axborotlashtirish loyihalariga ajratiladigan budjetda garchi g'oyatda muhim bo'lishiga qaramay xizmat ko'rsatishga doir xarajatlar ko'zda tutilmaydi.

Raqamli iqtisodiyot butun dunyoni qamrab olishi tufayli, axborotlashtirish va raqamlashtirishga oid har qanday davlat loyihasi kompleks ravishda hamda yagona kodlash tizimi, iqtisodiy va boshqaruvga aloqador axborotni aniqlash asosida o'rganilishi lozim.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishdagi eng muhim jihat va bir vaqtning o'zida eng murakkab bosqich – bu ishbilarmonlik muhitini soddalashtirish hamda odamlar va biznesning davlat bilan muloqotiga sarflanajak xarajatlarni maksimal qisqartirishdir.

Shundan keyin tomonlarning davlat va xususiy sektor doirasida tashkilotlararo (multiagent) muloqotni yo'lga qo'yish talab etiladi. «Bittadan-bittaga» va «bittadan-ko'pga» muloqot formulasidan «ko'pdan-ko'pga» formulasiga o'tiladigan raqamli iqtisodiyot platformalari ushbu jarayonning eng muhim bo'lagi hisoblanadi. Ushbu sohadagi siljishlar davlat ko'magida kichik va o'rta biznesga

mos keladigan konsalting va texnik tashkilotlarni rivojlantirish orqali, iqtisodiyotning real sektoridagi vaziyatni avtomatik tarzda keskin o'zgartiradi (va mazkur sohalarda tuzilmaviy islohotlarga turtki beradi) va innovatsion iqtisodiyot uchun shart-sharoit yaratishga yordam beradi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boshqa mamlakatlar kabi, O'zbekiston uchun ham uning dunyo miqyosidagi raqobatbardoshligini belgilab beradigan strategik ahamiyatga molik masalalardan biri hisoblanadi. Shuni ham tan olish kerakki, O'zbekistonga bugungi kunda maqbul keladigan tadbir qisqa davrda – birinchi navbatda, texnologik ortda qolishdan qutulishdir. Hozirda esa mamlakatimizda zarur miqdordagi to'laqonli iqtisodiyot sub'ektlari yo'qligi tufayli yetuk va to'laqonli raqamli iqtisodiyotni o'z-o'zidan shakllantirish uchun shart-sharoitlar yo'q. Bu esa davlatimizga raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini uchun shart-sharoitlar yaratish, uni eng kerakli sohalarga yo'naltirish va bu jarayonni imkoniyat darajasida rag'batlantirish zarurligi demakdir.

Milliy iqtisodiyotimizning yana bir muhim ajralib turadigan jihati shundaki, YaIM asosiy qismi davlat korporatsiyalari (yoki davlat ishtiroki ulushi katta bo'lgan kompaniyalar) tomonidan yaratiladi. Ishlab chiqarishning ko'plab tarmoqlarida davlat ishtirokidagi o'yinchilar bozorning 80%gacha bo'lgan qismini tashkil qilishi mumkin. Bunday sharoitlarda profilli vazirliklar yoki davlat korporatsiyalari rahbarligi ostida industrial raqamli platformalar yaratish eng oqilona qadam bo'lib hisoblanadi. Bunday platformalar raqamli iqtisodiyotning tez rivojlanishi va unga mos keluvchi texnologiyalarning keng tarqalishi uchun zarur infratuzilma bazisini yaratadi.

Raqamli iqtisodiyot platformalari tuzishda asosiy e'tiborni quyidagi yo'nalishlarga qaratish zarur: telekommunikatsiyalar, energetika, transport, sog'likni saqlash, soliq va soliqqa tortish, bank-moliya sohasi dori-darmonlar logistikasi, ma'lumotlarni qayta ishlash, turizm, tashqi iqtisodiy faoliyat, ko'chmas mulk savdosi va ishlab chiqarish. Aynan shu sohalarning rivojlanishi infratuzilma va texnologik bazis yaratishga imkon beradi. So'ngra ularni boshqa sohalarga ko'chirgan holda O'zbekistonda yetuk raqamli iqtisodiyotni maksimal darajada tez rivojlantirishi mumkin boladi. Bunday yondashuv bugungi kunda respublikamiz uchun eng maqsadga muvofiq bo'lib ko'rinadi, lekin u ham kamchiliklardan xoli emas, albatta.

Shuni alohida aytib o'tishni istardikki, rivojlangan mamlakatlar raqamli iqtisodiyotining ko'plab dasturlari (AQSh, Avstriya, Avstraliya, Buyuk Britaniya, Koreya va boshqalar) asosiy e'tiborni «raqamli tibbiyot» va «aqlli shahar» ijtimoiy yo'nalishlariga qaratgan. Bunday loyihalarni rivojlantirish yo'nalishi jiddiy

iqtisodiy samaraga ega emas, ammo bu holat bir qator dalillar bilan asoslanishi mumkin:

birinchidan, har qanday keng ko‘lamli rivojlanish dasturi g‘arb turidagi ochiq jamiyatda omma tomondan ma‘qullanishi va qo‘llab-quvvatlanishi lozim. Shu sababli, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bunday ijtimoiy loyihalar belgisi ostida boradi;

ikkinchidan, yirik sanoatlarda raqamli texnologiyalar joriy qilish ertami-kechmi, o‘z-o‘zidan iqtisodiy maqsadga muvofiqlik tufayli ro‘y beradi. Ijtimoiy loyihalar esa davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga ehtiyoj sezadi (ya‘ni, maqsadga muvodiq narsalar aqlga muvofiq, aqlga muvofiq narsalar esa maqsadga muvofiqdir);

uchinchidan, ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlar raqamli iqtisodiyotni ma‘lum bir ko‘rinishda amalga oshirishga imkon beradigan sezilarli texnologik asoslarga ega bo‘ladi. Keng ko‘lamli ijtimoiy loyihalarni amalga oshirish natijasida ko‘p sonli mutaxassis bo‘lmagan foydalanuvchilardan teskari aloqaga ega bo‘linadi, bu esa foydalanuvchi nuqtai-nazaridan texnologiyalarni takomillashtirish va ularni aholining keng qatlamlari uchun ochiq qilishga imkon beradi;

to‘rtinchidan, raqamli texnologiyalarni sanoatda joriy qilish (masalan, ishlab chiqarishda buyumlar interneti, 3D-printerlarni ishlab chiqarishga keng miqyosda joriy qilish kabilar) ancha tor doiradagi vazifalarni hal qilishi ko‘zda tutilgan. «Raqamli tibbiyot» va «aqli shahar» ijtimoiy loyihalarini amalga oshirish esa ko‘proq murakkablik va xilma-xillikni talab qiladi hamda bunday loyihalar keng halq ommasi tomonidan taqdirlanadi.

Foydalanilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar

Foydalanilgan asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar

1.Akaev A.A., Kenjabaev A.T., Ilxamova Yo.S., Jumaniyozova M.Yu. Iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalari. Darslik.T.-“Fan va texnologiya”. 2019.- 510 bet.

2.Kenjabaev A.T., Ikramov M.M., Allanazarov A.A.. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. O‘quv-qo‘llanma.T.-“O‘zbekitson faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”. 2017.- 408 bet.

3.Lapidus L. Sifrovaya ekonomika. Upravlenie elektronnyy biznesom i elektronnoy kommersiey. Uchebnik. M.: INFRA-M, 2019.- 348 str. <https://www.labirint.ru/books/670196/>.

4.Jason Murphy, “What Woolworths Needs to Do to Fight Back”, News.com.au, July 26, 2016, www.news.com.au/finance/business/retail/is-

woolworths-at-risk-of-being-killed-by-german-giants/news-story/32fddb1ca6925658a7e620357a8633a0; C. Wahlquist, “Amazon Expands in Australia and Plans Big Warehouse”, Guardian (London), April 19, 2017.

5. BI Intelligence, “Will the Internet of Things Be Bigger Than the Industrial Revolution?” Business Insider: Innovation, August 17, 2016, www.businessinsider.com/iot-ecosystem-internet-of-things-predictions-and-business-potential-2016-7. Po otsenkam GE, k 2020 g. v mire budet naschityvatsya 50 mlrd podklyu-chenных k internetu ustroystv.

6.A. Lashinsky, “Why Flex Is Going Beyond Its Manufacturing Roots”, Forbes, October 22, 2015.

7.Kenjabaev A.T., Valikhanov A.R. Post-pandemic perspectives for the development of digitalization in Uzbekistan. International Journal of Management, IT & Engineering Vol. 12 Issue 9, September 2022, ISSN: 2249-0558 Impact Factor: 7.119 Journal Homepage: <http://www.ijmra.us>, Email: editorijmie@gmail.com Double-Blind Peer Reviewed Refereed Open Access International Journal - Included in the International Serial Directories Indexed & Listed at: Ulrich's Periodicals Directory ©, U.S.A., Open J-Gate as well as in Cabell's Directories of Publishing Opportunities, U.S.A.

8.Kenjabaev A.T., Valikhanov A.R. International Journal of Research in Economics and Social Sciences (IJRESS) Available online at: <http://euroasiapub.org> Vol. 12 Issue 09 September- 2022 ISSN: 2249-7382 Impact Factor: 8.018|.

9. Kenjabaev A.T., Sulonov. Risk management in investment projects. International Journal of Marketing and Technology. Vol. 12 Issue 08, August 2022, ISSN: 2249-1058 Impact Factor: 6.559. Journal Homepage: <http://www.ijmra.us>, Email: editorijmie@gmail.com. Double-Blind Peer Reviewed Refereed Open Access International Journal - Included in the International Serial Directories Indexed & Listed at: Ulrich's Periodicals Directory ©, U.S.A., Open J-Gate as well as in Cabell's Directories of Publishing Opportunities, U.S.A.

10.Aman Kenjabaev, Azamat Davletyarov, Dilmurod Suyunov. Digitalization of the economy: concepts, problems and implementation strategy. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development Volume 12, Feb., 2023 ISSN (E): 2751-1731 Website: www.sjird.journalspark.org.

11.Aman Kenjabaev, Borikhon Ganikhodzhaev, Dilmurod Suyunov, Akbar Kuvandikov. Development of the digital economy in Uzbekistan and its main directions. American Journal of Interdisciplinary Research and Development ISSN Online: 2771-8948 Website: www.ajird.journalspark.org Volume 14, March, 2023.